



**IJTIMOIIY TARMOQ ADABIYOTINING BUGUNGI ADABIY
JARAYONDAGI AHAMIYATI**

Manzura Tulaganovna Narmatova

Jizzah davlat pedagogika universiteti v.b.dotsenti

narmatovamanzura75@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy tarmoq adabiyotining adabiy jarayondagi ahamiyati, yangi janrlar va muallif-o'quvchi munosabatlarining o'zgarishi tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoq adabiyotining badiiy-estetik xususiyatlari, ommaviylik va tezkorlik omillari hamda an'anaviy adabiyot bilan aloqasi ilmiy asosda baholanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinayotgan she'riy va nasriy asarlarning bugungi adabiy jarayondagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье анализируется значение литературы социальных сетей в литературном процессе, появление новых жанров и изменение отношений между автором и читателем. Художественно-эстетические особенности литературы социальных сетей, факторы массовости и оперативности, а также её связь с традиционной литературой оцениваются на научной основе. Кроме того, рассматривается место публикуемых в социальных сетях поэтических и прозаических произведений в современном литературном процессе.

Abstract

The article analyzes the significance of social media literature in the literary process, the emergence of new genres, and the changing relationship between authors and readers. The artistic and aesthetic features of social media literature, factors of popularity and immediacy, as well as its connection with traditional literature, are evaluated on a scientific basis. Furthermore, the role of poetic and prose works published on social media in the contemporary literary process is discussed.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq adabiyoti, zamonaviy adabiyot, adabiy jarayon, yangi janrlar.





KIRISH

XXI asr adabiyoti raqamli texnologiyalar va axborot makonining jadal rivoji bilan chambarchas bog'liq. Globallashuv jarayonlari, shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar adabiyotning yaratilish va tarqalish shakllarini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar faqat axborot almashish vositasi bo'lib qolmay, balki adabiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda she'rlar, qisqa hikoyalar, esse va adabiy mulohazalar muntazam e'lon qilinadi, bu esa kitobxon va muallif o'rtasidagi masofani sezilarli darajada qisqartiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoq adabiyoti yangi mualliflar va janrlarning yuzaga chiqishiga zamin yaratadi. Ijtimoiy tarmoq adabiyoti raqamli makonda yaratiladigan va tarqaladigan adabiy asarlarni o'z ichiga oladi. Uning shakllanishi axborot texnologiyalarining rivoji, internet foydalanuvchilari sonining ortishi va adabiyotning ommaviylashuvi bilan bog'liqdir. Ba'zida boshlovchilar, hatto tajribali jurnalistlar uchun ham bosma yoki elektron nashrlardan kechikishlar bo'lishi mumkin. Chunki har bir nashr o'z talabiga ega. Ijtimoiy tarmoqlardagi kanallar esa ijodkor uchun katta maydon ochib beradi. Har kim o'z imkoni va iqtidoriga, harakati va hafsalasiga qarab obunachi yig'ishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar tezkorligi bilan ham ustun. Ayni damdagi dolzarb va ahamiyatli mavzu haqida o'sha zahoti biror ijod namunasi yaratish yoki to'g'ridan-to'g'ri xabar berish mumkin. Ularni yoritish va ommaga havola etish uchun esa juda katta texnik malaka va iqtidor talab etilmaydi. Hozir ijtimoiy tarmoqlarda bir necha o'n minglab obunachilariga ega huquqshunoslar, shifokorlar, ilm ahli, oshpazlar va boshqalarning kanallari faoliyat yuritadi. Bu o'z-o'zini namoyon etish, tanilish va muvaffaqiyat qozonish uchun qulay yo'ldir. Bundan tashqari, fikrlarini yozma ifoda etib borish kishining aqliy salohiyati o'sishiga ham turtki beradi.

An'anaviy adabiyotda asar muallifdan nashriyot orqali kitobxonga yetib borsa, ijtimoiy tarmoq adabiyotida bu jarayon bevosita va tezkor tarzda amalga oshadi. Muallif o'z asarini hech qanday vositachilarsiz o'quvchiga taqdim etish imkoniyatiga ega. Bu holat ijod erkinligini kengaytirish bilan birga, adabiy jarayonning demokratlashuviga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yangi ijodkorlarning yuzaga chiqishiga zamin yaratmoqda. Avval adabiy muhitga kirish imkoniyati cheklangan bo'lgan ko'plab yosh ijodkorlar bugun o'z asarlarini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniga ega bo'lmoqda.





ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy tarmoq adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri ixchamlikdir. Raqamli makonda o'quvchining e'tibori tez chalg'ishi sababli asarlar ko'pincha qisqa, lo'nda va ta'sirchan shaklda yaratiladi. Bu holat mini-she'rlar, qisqa hikoyalar va aforizmlarning keng tarqalishiga olib kelmoqda. Yana bir muhim jihat – tezkorlikdir. Ijtimoiy tarmoqlarda asar yaratilishi, e'lon qilinishi va baholanishi juda qisqa vaqt ichida sodir bo'ladi. O'quvchilar tomonidan bildirilgan izoh va munosabatlar muallif uchun bevosita adabiy muloqot vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoq adabiyotida o'quvchi faolligi yuqori bo'lib, u adabiy jarayonning passiv kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu holat adabiyotning kommunikativ tabiatini yanada kuchaytiradi.

Ijtimoiy tarmoq adabiyoti bugungi adabiy jarayonning muhim omillaridan biriga aylanib ulgurdi. U an'anaviy adabiyot bilan parallel ravishda rivojlanib, uni inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Ko'plab ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lgan asarlar keyinchalik kitob holida nashr etilayotgani buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, ijtimoiy tarmoq adabiyoti adabiy tanqidning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Izohlar, bahs-munozaralar va onlayn muhokamalar adabiy fikr almashuvining muhim vositasiga aylanmoqda. Biroq ijtimoiy tarmoq adabiyotiga nisbatan tanqidiy yondashuv ham mavjud. Bu bevosita adabiy tanqidning oshkora va real namoyon bo'lishini ta'minlamoqda. Badiiy saviyaning bir xil emasligi, havaskorlikning ustunligi kabi jihatlar ilmiy tahlilni talab qiladi.

XULOSA

Ijtimoiy tarmoq adabiyoti zamonaviy adabiyotning rivojiga yangi imkoniyatlar ochib, muallif va kitobxon o'rtasidagi muloqotning jadallashuvini yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ijod qilayotgan yosh va havaskor mualliflar keng auditoriya bilan muloqot va fikrlar almashinuvi sabab yangi janrlar va shakllarni yaratmoqdalar. Ijtimoiy tarmoq adabiyoti an'anaviy nashriyot va adabiy tanqid bilan parallel ravishda rivojlanishda davom etmoqda. Ijtimoiy tarmoq adabiyotining badiiy-estetik xususiyatlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda baholash bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Negaki ijtimoiy tarmoq adabiyoti vaqtincha tendensiya emas, balki zamonaviy adabiy jarayonning mustahkam va doimiy qismi sifatida shakllanmoqda.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va adabiy jarayon. – Toshkent, 2019.
2. Qo‘shjonov M. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent, 2018.
3. Xudoyberdiyev E. Internet va zamonaviy madaniyat. – Toshkent, 2020.
4. Mirzayev S. Adabiy tanqid va zamon. – Toshkent, 2017.
5. Zamonaviy adabiyot va raqamli makon mavzusidagi ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2021.

